

**RAHMAT PAYG'AMBARIM
BISMILLAHIR ROHMANIR ROHIYM!**

Masharipov Raxmatulla Beknazarovich

*Osiyo Xalqaro Universiteti*ning 70110102 *Pedagogika va psixologiya yo'nalishi*
magistranti Xorazm viloyati Urganch tumani "Imom Faxriddin ar-Roziy"

*o'rtamaxsus islom bilim yurtining ARM rahbari, pedagogika
va psixologiyafani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni asosan siyrat kitoblarini hamda diniy-ma'rifiy kitoblarni ham o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish hamda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam yanada ko'proq tanitish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: siyrat, payg'ambar, rahmat, kitob, tarix, qiziqtirish, jarayon, mehr-muhabbat, salovot, zikr, madaniyat, adabiyot, shakllantirish, e'tibor, havas, vazifa.

Rahmat Payg'ambarim

Mehribon va rahmdil Allohning nomi bilan boshlayman. Cheksiz Rahmat sohibi, Barcha olamlarni va jamiki jonzotlarni yaratgan robbisi, Alloh taologa abadul-abad to'xtovsiz va cheksiz ravishda hamdu-sano, shukronalar bo'lsin. Olamlarga rahmat o'laroq yuborilgan Sarvari Koinot Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallamga to'xtovsiz va cheksiz ravishda abadul-abad salovotu salomlar bo'lsin. O'tgan salafi solih, olim-ulamolarimizga Alloh taoloning rahmati bo'lsin. Ancha o'yladim, Yo Alloh yo robbil a'alamiyn men bir ojiz qulingman dardim kop, ichimdagi dardlarim daryoday toshmoqda qalbimda vulqon bo'lib otilmoqda ammo biror so'z dilimga kelmas. Lekin bilasizmi men barcha insonlar musulmon bo'lishlarini va barcha musulmonlar esa rahmat Payg'ambari bo'lgan Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallamni o'zlaridan ham yaxshi tanishlari zarurligini tushunib etishlarini hohlayman. Har bir musulmon erkak va ayol bu hayotda agar jonini fido qilishi kerak bo'lsa birinchi navbatda rahmat payg'ambari Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallam bunga loyiq inson bo'lganliklarini tushunib etishlarini hohlayman.

Darhaqiqat Alloh taoloning eng ulug' sifatlaridan biri ar-Rahmondur. Rahmon so'zining ma'nosi barcha maxluqotlarga rahm qiluvchi, mo'minga ham, kofirga ham ne'matlarni beruvchi degani. Ha, Alloh taoloning mehribonligi cheksiz. Alloh taolo o'ziga itoat qilmagan gunohkor bandalariga ham rizq beraveradi. U Zot oxirgi payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamni ham rahmat payg'ambari qilib yuborgan. Qur'oni karimda: "(Ey, Muhammad!) Biz Sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz", degan. (Anbiyo 107-oyat). Oyatdagi "rahmat" juda keng

ma'noni anglatadi. Bu haqiqatni, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning axloq-odoblari, siyrat va shamoillari, shariatlarining bag'rikengligi, hatto kufr va shirk ahliga ham zulmni ravo ko'rmasliklari, mehr-oqibat, ezgulik kabi fazilatlar manbai ekanliklaridan xabardor bo'lgan insonlargina tushuna oladi.

Rahmat Payg'ambari Sarvari Koinot Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam, Alloh taoloning so'nggi payg'ambari, payg'ambarlarning eng ulug'i va xotimalovchisi, Parvardigor butun olamga rahmat qilib yuborgan elchisi, insoniyat faxri, odamlarning eng yaxshi xulqlisi va eng komili edilar.

U zot rahmat Payg'ambari, hidoyat imomidir, u zotga salavotu salomlar bo'lsin. U zot butun insoniyatga go'zal mav'iza bilan yuborilgan olamlar Robbining habibi va elchisidirlar. U zot ummatlari uchun bu dunyoda jonini fido qilib o'tdilar. U zot oxiratda ya'ni qiyomat kunida ham biz ummatlarini shafolat qiladilar. U zot jannat eshiklarini birinchi bo'lib qoqadilar.

Alloh taolo bu ummatga rahmatini yog'dirishni iroda qilib, O'z Payg'ambari orqali rahmatini yog'dirdi ya'ni rahm qildi. Buni isboti, asosi sifatida bir qancha hadisi shariflar vorid bo'lgan.

Abu Muso al-Ash'ariy roziyallohu anhu aytadi:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizga o'zlarini bir necha ismlar ila nomlar edilar: Men Muhammadman, Ahmadman, Muqaffiyman, Hoshirman, Nabiyyurrohma, Nabiyyuttavbaman», der edilar».

Muslim rivoyat qilgan.

Sharh:

Bu rivoyatda avvalda zikr qilinmagan uchta ism zikr qilinmoqda:

1. Muqaffiy.

Bu muborak ismning ma'nosi ham orqadan keluvchi bo'lib, Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallamning so'nggi payg'ambar ekanliklarini anglatadi.

2. Nabiyyurrohma.

Bu muborak ismning ma'nosi rahmat payg'ambari degani.

3. Nabiyyuttavba.

Bu muborak ismning ma'nosi tavba payg'ambari deganidir.

Olamlarga rahmat o'laroq yuborilgan Sarvari Koinot sollallohu alayhi vasallamni tarixlarini o'qib chuqur o'rganish u zot alayhissalomga munosib ummat bo'lish, u zotni sevish, hurmatlash, sha'nlarini jonimiz va qonimiz bilan himoya qilish, bu ummatga ham farz ham qarz bo'ladi.

Inson o'z farzandlarini yaxshi ko'rishi fitratida tug'iladi.

Sunnatiy dalillarga ko'ra Alloh taoloning yuz rahmatidan biri bandalariga taqsimlangan va o'sha ilohiy rahmat nasibasi ila barcha bir biriga rahm qiladi. Hatto hayvon ham o'z bolasini bosmay oyog'ini ko'tarib turadi.

E'tiborlisi shuki, farzandga va ota-onaga eng mehribon musulmonlar bo'ladi.

Musulmonlarda ota-onani va farzandlarni e'zozlash va ularni ehtirom qilish savobi ulkan amallardandir. Shuning uchun musulmonlar bolalar uyiga bolalarini va qariyalar uyiga ota-onasi tashlab qo'yishmaydi. Ammo, farzandlarning turfa bo'lishi ham haqiqat. Biri rostgo'y, biri esa ba'zan yolg'on so'zlab turadi. Biri botir yana biri qo'rqqoq. Biri tez, yana biri esa halimroq. Biri mehribon, yana boshqasi bemehrroq bo'ladi, shunday bo'lsa ham kamdan kam inson o'z farzandini yomon ko'radi. Yomon fe'llari uchun qanchalar kuyib, qiynalsak ham voz kecha olmaymiz, kechmaymiz ham. Buning sababi yuqorida aytganimizdek Alloh taoloning olamlarga rahmat o'laroq yuborgan Sarvari Koinot Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning xizmatlari va duolari barokatidandir.

Butun olamga rahmat qilib yuborilgan u zoti sharifning xislatlaridan yana ba'zilarini bizga sevimli nabiralari Husayn roziyallohu anhu so'zlab beradilar: "Otamdan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning suhbatdoshlari bilan bo'lgan munosabatlari haqida so'raganimda bunday dedilar: "Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam doimo quvnoq, muloyim va go'zal axloqli zot edilar.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam har qanday holatda ham odamlarga samimiy munosabatda bo'lar edilar: biron-bir kimsani ayblamasdilar, mazammam qilmasdilar yoki sirlarini bilishga intilmasdilar.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam savobidan umid qilgan so'zinigina so'zlar, gapirganlarida sahobalar boshlarida qush qo'nib turgandek jim o'tirishar, Rosululloh sollallohu alayhi vasallam so'zlarini tugatganlaridan keyingina gapirar edilar.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam birinchi bo'lib gapira boshlagan sahoba so'zini tinglar, sahobalar kulgan narsalarga kular, ajablangan narsalaridan ajablanar, biror notanish odamning qo'pol so'zlari va noo'rin talablariga sabr qilar, buni ko'rgan sahobalar notanish odamni chekkaga olib chiqib ketishini xohlab, qo'llaridan ushlasalar: "Ehtiyojini so'ragan odamni ko'rsangiz, unga ko'makchi bo'linglar!" – der edilar.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam munosib odamlardangina maqto'v qabul qilar, so'zini tugatmaguncha hech kimning gapini bo'lmas, haddidan oshsagina, uning so'zini qaytariq yoki o'rinlaridan turib ketish bilan bo'lar edilar" Imom Termiziy rivoyati.

Usmon ibn Hunayf roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Ko'zi ojiz kishi Nabiy sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: "Menga shifo bermoqligida Alloh taologa duo qiling" dedi. Shunda u zot: "Agar xohlasang kechiktiraman va mana shu (ko'zingni ojizligiga sabr qilishing) yaxshidir. Agar xohlasang duo qilaman" dedilar. U kishi: "Duo qiling" dedi. Shunda u zot u kishini chiroyli tahorat olib, ikki rak'at namoz o'qib, quyidagi duoni qilishga amr qildilar: "Allohumma inniy as'aluka va atavajjahu ilayka bi Muhammadin nabiyir rohmati". (U kishi) Ey, Muhammad sollallohu alayhi vasallam bu hojatim ravo bo'lishi uchun

Robbinga sizni vasila qilib yuzlanib: “Ey, Allohim meni haqqimdagi u (Nabiy sollallohu alayhi vasallam)ning shafosatini qabul qilgin” (dedim) dedi” (Ibn Moja rivoyati).

Ma’nosi: Allohim O’zingga yuzlanib, rahmat payg’ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamni vasila qilib so’rayman.

Bu o’rindagi “rahmat payg’ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamni vasila qilib so’rayman” jumlasini shaxsni vasila qilish joizligiga dalildir. Muhaddislarning eng ulug’lari hisoblanmish hofizlar bu hadisni sahih deb ta’kidlaganlar.

Robi’ul avval oyi – musulmonlar uchun ulkan baxtu saodat, xursandchilik oyi bo’lib, bu oyda butun olamlarga rahmat, ikki jahon sarvari, oxir zamon Payg’ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallam tavallud topganlar. Bu oyni musulmonlar o’zgacha ruh va katta tayyorgarlik bilan kutib olishadi va Rasululloh alayhissalomga bo’lgan muhabbatning kichik bir ko’rinishi sifatida mavlidi sharif tadbirlari va salovot zikri musobaqalari o’tkazishadi, Shuning uchun u zotning siyratlarini o’rganishga alohida e’tibor qaratishadi. Allohmma solli a’la sayyidina Muahmmad.

Naqshbandiy tarbiyasi, Shohi Naqshband hazratlarining tanlagan maxfiy zikr usuli uzra qurilgandir. Bu usulni yoqtirgan buyuk valiyalar tomonidan rivojlantirilib, hozirgi kunimizga qadar etib kelgandir. Bu usul va odoblar Qur’on oyatlaridan, rahmat payg’ambari Hazrati Muhammad sollallohu alayhi va sallamning sunnatidan va uning sharafli ashob (roziyallohu anhum)larning hollaridan olingan. Bu tarbiya tuzumi butun borlig’i bilan Qur’on va Sunnatga bog’likdir. Barcha tarbiya tuzumi va ichidagi odoblar, dinimizning asosiy manbalariga tayanadi. Bu odoblar Qur’on va Sunnatda yo ochiq belgilangan yoki ishorat, dalolat va sukut yo’li bilan qabul qilingan. Ya’ni, bu yo’lda Islomning ruhiga mos kelmagan hech narsa yo’qdir.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. “Qur’oni Karim” oyatlari mazmun-ma’nosining o’zbekcha izohli tarjimai. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
2. “Tafsiri hilol” Sharq nashriyoti Toshkent 2012 yil. Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf.
3. “Sahihul Buxoriy” Toshkent 1993 yil. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy.
4. “Hadis va Hayot” 19-juz HILOL NASHR nashriyoti 2016 yil. Shayx Muahmmad Sodiq Muhammad Yusuf.
5. “Siz Payg’ambari ko’rganmisiz” Toshkent islom universiteti nashriyot birlashmasi 2007 yil. Abdul Azim Ziyovuddin.